

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING TA'LIM JARAYONIDA MOTIVATSIYANING O'RNI

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika  
universiteti xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi  
2-bosqich talabasi Tursunova Surayyo*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qish motivlarini shakllantirish va uning psixologik omillari tahlil qilingan, o'qish motivlarini rivojlantirishga oid fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qish motivlarini shakllantirish bo'yicha xorij olimlarining ilmiy izlanishlari ham yoritib berilgan.*

***Аннотация:** В данной статье анализируются формирование мотивов чтения у детей младшего школьного возраста и его психологические факторы, а также выдвигаются идеи относительно развития мотивов чтения. Также освещены научные исследования зарубежных ученых по вопросам формирования мотивации к учебе у учащихся младшего школьного возраста.*

***Annotation:** In this article, the formation of reading motives in children of junior school age and its psychological factors are analyzed, and the ideas regarding the development of reading motives are put forward. Also, the scientific research of foreign scientists on the formation of motivations for studying among students of junior school age is highlighted.*

***Kalit so'zlar:** motiv, o'qish motivlari, ta'lim, motivatsiya, kichik maktab yoshi, o'quv faoliyati.*

Bola kichik maktab yoshi davrida maktabdagi ichki tartib-qoidalar bilan, o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan, turli xil fanlar bilan tanishadi. Bola fanlarni o'rganish uchun psixologik, biologik jihatdan rivojlanadi, bolaning psixikasi rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish

bo'ladi. Shaxsning shakllanishi bolaning psixik rivojlanishida bolaning maktabga borishining o'rnini juda katta. O'quv faoliyat boladan tasavvur, tafakkur, diqqat, nutq, xotirani kerakli darajada rivojlanishni talab qiladi va bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi.

Bola o'qishda jamiyatdagi o'rnini tushunadi, bu narsa bolani shaxsan maktabda o'qishda tayyorligini ko'rsatadi va bu motivlar ijtimoiy ta'sir natijalaridir. Bola kelajakda bilimli va madaniyatli bo'lishi, yaxshi inson bo'lishi uchun o'qishi kerakligini tushunadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar hozirgi kuni bilan yashaydi, shuning uchun dars shunday dars tashkol qilish kerakki, bola darsda o'zining natijalari, olayotgan bilimlarini ko'rsin, bilimi oshayotganligini sezsin, o'qishga motivatsiyasi oshsin. Bola nimani biladi-yu nimani bilmaydi, qaysini o'qishi kerakligini belgilab olishi, o'ziga hisobot berishi lozim. Bola birinchi kundan burch va javobgarlik hissini tushunmaydi. Barcha kichik maktab yoshidagi bolalar javobgarlik hissini tushunmasligi tadqiqotda aniqlangan. Faqatgina 25% bolalar "javobgarlik bu-o'qituvchi talab qilgan barcha narsani bajarish kerak"ligini aytishgan. Ular ko'proq javobgarsizlikni yaxshiroq tushunishar ekan[1]

L.S.Salavina tajriba o'tkazadi. U bu tajribasida kichik yoshdagi o'quvchilarga bir xil yo'nalishni taklif qiladi (aylana ichiga nuqta qo'yish, aylana esa kvadratlarga qo'yilgan bo'ladi). Har bitta kvadratda yuztadan aylana bo'ladi va hammasi bo'lib, bir varaqda 15 ta kvadrat yoki 1500 ta aylana bo'ladi. Birinchi qismda bolalarga 2,5 ta oraliq yo'llanmasi beriladi va tajriba o'tkazuvchi bolaga zarurat uchun kvadrat ichida ko'proq nuqtalar qo'yishni iltimos qiladi. Shuningdek, bola qancha xohlasa shuncha nuqta qo'yishi va xolhagan payti to'xtatishi mumkinligi tushuntiriladi. Ikkinchi qismda maqsad aniq yo'naltirilgandi, ya'ni nechta kvadrat ichiga nuqta qo'yilishi aniq aytiladi, yoki oxirida ishga o'zgartirish kiritishni so'raydi, yoki bu ishni bajarishdan bosh tortadi. Keyin sekij asta ish hajmi kamayib borishi kuzatiladi. Bu natijalar ilkinchi qismda o'zgaradi, bolaning ish hajmi oshib, birinchi qismdan ko'proq ish bajaradi. Shunda ish hajmi qo'yilgan vaqt bilan bog'liklogi aniq bo'ldi. Agar maqsad

zaruratsiz bo'lsa, u ishga yordam bermaydi, yoki uning ko'tarilishi qiyin bo'ladi. Agar mashq aniq bo'lsa va qisqa vaqt ichida bajarilsa, bola ko'proq ish bajarishga harakat qiladi. Bu maqsad aniq yo'nalganligini va motivatsiya an'anasini boshqarilishi, uni aniq jarayonga yo'nalishiga omil borligi ko'rsatadi.

Gruziyaning ko'p maktablarida o'quvchilarni baholamaslik yo'lga qo'yilgan, 1964-yildan beri o'quv jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalar baholanmaydi. Gruzin psixologlarining fikricha, baholashda bolaning asosiy motivatsiya xususiyati gavdalanadi, bola óziga qo'yilgan bahodan yuqotiroq baho olishni istaydi va qiziqishi so'nadi va bu hol bolaga yomon ta'sir qiladi. Bahosiz o'qitish bola hayajonini yo'qotib, bilish motivini, o'qishni kuchaytiradi. [2].

O'quvching ta'limida motivatsiyaning o'rni katta, o'quvchilar ichki motivatsiya bilan o'quv predmetlarini yaxshiroq o'rganishadi va o'qishda yanada qat'iyatli bólishadi, rivojlanishga va o'z-o'zini o'rganishga ko'proq moyil bo'lishadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Маркова А.К. Формирование мотивации учения в школьном возрасте. Пособие для учителя. М.: Просвещение, 1983.-96 с.
2. Формирование учебной деятельности школьников. /под ред. В.В.Давыдова, И.Ломпшера, А.К.Марковой. -М.: Педагогика, 1982.-216 с